



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI

ЦЕНТРАЛЬНЫЙ БАНК
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

THE CENTRAL BANK OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100001, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Islom Karimov ko‘chasi, 6.
Tel.: (+99871) 212-60-21, 212-62-99, 200-00-44, 233-32-70, Faks: (+99871) 233-79-39.
www.cbu.uz, info@cbu.uz, cbu@exat.uz

100001, Республика Узбекистан,
г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 6

6, Islam Karimov street, 100001, Tashkent,
Republic of Uzbekistan

20 26 у. “ 20 ” yanvar № 26-20/150

Tijorat banklariga

Markaziy bank qarz oluvchi tomonidan kredit (mikroqarz) shartnomalarida belgilangan to'lov bo'yicha majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmagan holatlarda qo'llanilayotgan chora va sanksiyalar amaliyotini o'rganish natijalari yuzasidan quyidagilarni ma'lum qiladi.

O'rganish natijalari ayrim hollarda banklar tomonidan kredit bo'yicha to'lovlar kechiktirilganda qo'llanilayotgan sanksiyalar miqdori kreditning dastlabki qiymatiga ham, kreditorning haqiqiy xarajatlariga ham mutanosib emasligini ko'rsatmoqda.

Xususan,

to'lovlar muddati buzilganda kechiktirilgan to'lov summasi uchun hisoblanadigan foiz kredit bo'yicha shartnomada belgilangan yillik stavkaga nisbatan **1,5–3 barobarga**, ba'zi holatlarda esa **yillik 150-180 foizgacha oshirilmoqda**. Bunda, ushbu sanksiya foizli daromadning muqobil shakliga aylanmoqda;

kredit bo'yicha foizlarni to'lash muddati kechiktirilganda kunlik penya (*uni hisoblash bo'yicha eng yuqori chegara belgilanmagan holda*) hisoblanib, uning yillik miqdori kreditning dastlabki qiymatidan bir necha barobar yuqori darajalarga yetib bormoqda;

har bir kechiktirish holati uchun kreditorning haqiqiy xarajatlari bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha bir martalik jarimalar qo'llanilmoqda.

Qayd etish joizki, bir vaqtning o'zida oshirilgan foiz stavkasi, penya va bir martalik jarima choralarining birgalikda qo'llanilayotganligi holatlari ham aniqlandi.

Natijada, to'lov muddatini kechiktirish bilan bog'liq umumiy qo'shimcha xarajatlar kreditni vijdonan va o'z vaqtida xizmat ko'rsatish qiymatidan bir necha barobar yuqori bo'lishiga hamda qarz oluvchi uchun yuzaga keladigan haqiqiy moliyaviy yuklama ushbu majburiyatlar bajarilishini iqtisodiy jihatdan qiyinlashtiradigan darajaga olib kelmoqda.

Markaziy bank, bunday amaliyot kreditor uchun kechikishning oldini olish yoki qarzni o'z vaqtida to'lashga ko'maklashishdan ko'ra, kechikish holatidan foyda ko'rish manfaatliroq bo'lgan iqtisodiy modelni shakllantirayotganligini qayd etadi.

Kredit shartnomalaridagi bu kabi shartlar kreditorni to'lov intizomini ta'minlashdan ko'ra kechiktirish holatidan daromad olishga obyektiv ravishda undaydi hamda kreditlash shartlarining ochiq va tushunarli ravishda oshkor etilishida shaffoflikning buzilishi xavfini keltirib chiqaradi, ya'ni majburiyatlar buzilgan taqdirdagi haqiqiy moliyaviy oqibatlar kredit olish to'g'risida qaror qabul qilish bosqichida qarz oluvchi tomonidan yetarlicha baholanmay qoladi.

Bunday amaliyotlar tomonlar manfaatlari muvozanatini buzadi hamda ijtimoiy xatarlarning ortishiga, fuqarolar murojaatlari sonining ko'payishiga va bank tizimiga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi.

Markaziy bank majburiyatlarni kechiktirib bajarganlik uchun qo'llaniladigan sanksiyalar kompensatsion xarakterga ega bo'lishi lozimligini bildiradi va kreditorning kechikishdan iqtisodiy manfaaddor bo'lishiga olib keladigan hamda qarz oluvchining javobgarlik choralari mustaqil daromad manbaiga aylantiradigan shartnoma shartlari shakllantirilishini yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat deb hisoblaydi.

Bunday holatlarning mavjudligi, qarz oluvchilar uchun to'lovni kechiktirish oqibatlarining shaffofligini va oldindan ko'ra bilish imkoniyatini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan qarz oluvchilarning kredit shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini buzganlik uchun moliyaviy javobgarlikning aniq miqdorini belgilash to'g'risidagi qonunchilik talablarini qayta ko'rib chiqilishining asosiy sabablaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.